

Burxanov Abduali Mamatmuratovich

Guliston davlat universiteti o'qituchisi

e-mail: burxanovabduali@gmail.com

RAQAMLI VA INNOVATSION TA'LIM MUHITI SHAROITIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlashning nazariy-metodik jihatlari tahlil qilingan. Axborotga oid, kommunikativ, intellektual-pedagogik, operatsional hamda tartibga soluvchi kompetensiyalarning mazmuni ochib berilgan va ularning o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan. Raqamli ta'lim platformalari, multimedia vositalari hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'рни ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, pedagogik kompetensiya, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, innovatsion texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiya, kreativlik.

Бурханов Абдуали Маматмуратович

Преподаватель Гулистанского государственного университета

э-mail: burxanovabduali@gmail.com

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ЦИФРОВОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития педагогических компетенций будущих учителей физической культуры в цифровой образовательной среде. В исследовании анализируются теоретические и методологические аспекты подготовки педагогических кадров на основе компетентностного и личностно-ориентированного подхода. Раскрывается содержание информационных, коммуникативных, интеллектуально-педагогических, оперативных и нормативных компетенций, обосновывается их взаимосвязь. Показана роль использования цифровых образовательных платформ, мультимедийных инструментов и технологий искусственного интеллекта в формировании педагогических компетенций. Результаты исследования служат для совершенствования профессиональной

подготовки будущих учителей физической культуры и повышения качества образования.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, педагогическая компетентность, учитель физкультуры, инновационные технологии, компетентностный подход, рефлексия, креативность.

Burxanov Abduali Mamatmuratovich

Teacher at Gulistan State University

e-mail: burxanovabduali@gmail.com

DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL COMPETENCES OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS IN A DIGITAL AND INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation. This article discusses the issues of developing pedagogical competencies of future physical education teachers in a digital educational environment. The study analyzes the theoretical and methodological aspects of training pedagogical personnel based on a competency-based and person-oriented approach. The content of informational, communicative, intellectual-pedagogical, operational and regulatory competencies is revealed and their interrelation is substantiated. The role of the use of digital educational platforms, multimedia tools and artificial intelligence technologies in the formation of pedagogical competencies is shown. The results of the study serve to improve the professional training of future physical education teachers and increase the quality of education.

Keywords: digital learning environment, pedagogical competence, physical education teacher, innovative technologies, competency-based approach, reflection, creativity.

Kirish

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borar ekan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maqsadli va tizimli qo'llashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhiti sharoitida talabalarning kasbiy faolligini oshirish, ularda refleksiv fikrlash, samarali pedagogik muloqot, mustaqil ta'lim olish hamda o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan ta'lim strategiyalarida butun umr davomida sifatli

ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablarni zamonaviy ijtimoiy buyurtmalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, jismoniy tarbiya yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan hamda raqamli ta'lim texnologiyalarini amaliy yo'nalgan tarzda integratsiya qilish, ularning pedagogik mahorati, metodik tayyorgarligi va innovatsion faoliyatga tayyorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida elektron ta'lim platformalari, virtual trenajyorlar, multimedia vositalari va sun'iy intellekt asosidagi tahliliy tizimlardan foydalanish bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, raqamli ta'lim muhiti sharoitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qator qaror va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, raqamli muhitni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini raqamli ta'lim muhiti sharoitida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim platformalari va innovatsion metodlardan samarali foydalanish o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash jarayonini modernizatsiya qilish, ularning metodik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari davlat ta'lim siyosatida belgilangan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishga, ta'lim sifatini oshirishga hamda raqamli pedagogik muhitni takomillashtirishga muayyan darajada hissa qo'shadi.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasining inson salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Jismoniy tarbiya shaxsning jismoniy barkamolligi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy faolligi, ma'naviy yetukligi va kasbiy rivojlanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mazkur soha jamiyat hayotida muhim ijtimoiy-madaniy hodisa hamda milliy taraqqiyot omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish hamda innovatsion rivojlanishni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta'lim, tarbiya, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan g'oyalar mamlakatimiz taraqqiyotining muhim strategik asosini tashkil etadi.

Mazkur jarayonda jismoniy tarbiya sohasida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarni tayyorlash sifati va ularning kasbiy kompetensiyasiga bo'lgan talablar sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitining ta'lim tizimiga keng joriy etilishi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Endilikda pedagogdan nafaqat an'anaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, innovatsion metodlarni qo'llash ham talab etilmoqda.

Hozirgi davrda kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi asosida pedagog kadrlarni tayyorlash muhim vazifa sifatida

qaralmoqda. Avvalgi yillarda o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida asosan texnik va metodik bilimlarga e'tibor qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu jarayon shaxsning ijodiy, intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Bu esa bo'lajak mutaxassislarning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil faoliyat yuritish va innovatsion fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, pedagogning kasbiy kompetentligi uning nazariy tayyorgarligi, amaliy tajribasi, shaxsiy fazilatlari hamda raqamli savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi sport mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasini mukammal bilishi bilan bir qatorda, raqamli ta'lim platformalari va elektron resurslardan foydalanish orqali dars jarayonini samarali tashkil eta olishi lozim.

Yuqoridagilar xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimiz pedagog olimi N.N. Azizxodjayeva ta'kidlashicha, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, avvalo, kreativlik bilan tavsiflanadi. Kreativlik – bu o'qituvchining kasbiy faoliyat doirasidagi mavjudligi, ya'ni yangi pedagogik voqelikni yaratishga bo'lgan intilishi va malakasi bilan belgilanadi. U ta'limning maqsadi, mazmuni, xilma-xil pedagogik jarayonlar, texnologiyalar va tizimlarni ishlab chiqish va takomillashtirishga yo'naltirilgan ijodiy yondashuvni anglatadi. Kreativlik o'qituvchiga innovatsion o'zgarishlar muhitida moslashish, yangicha pedagogik qarorlar qabul qilish hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, har qanday darajadagi kasbiy jihatdan kompetent pedagog refleksiya qodir bo'lishi zarur. Refleksiya tafakkurning alohida shakli sifatida

pedagogik voqelikni, tarixiy-pedagogik tajribani va o'z kasbiy pozitsiyasini chuqur anglashni, shuningdek, shaxsiy faoliyatiga chetdan nazar tashlab baho bera olishni nazarda tutadi. Kasbiy-pedagogik kompetentlikning mazkur tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, mutaxassisning "ideal modeli"ni shakllantiruvchi murakkab tuzilmani hosil qiladi hamda uning shaxsiy-faoliyatli tavsifini belgilaydi.

Shundan kelib chiqib, kasbiy kompetentlikni shaxsning kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muammolarni belgilangan standartlar asosida samarali hal eta olish qobiliyati sifatida talqin qilish mumkin.

Mazkur tushunchaga Yu.G. Tatur tomonidan berilgan ta'rif nisbatan mukammal va aniq hisoblanadi. Unga ko'ra, oliy ma'lumotli mutaxassisning kasbiy kompetentligi – bu kasbiy sohada muvaffaqiyatli ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga bo'lgan intilishi va qobiliyati, uning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetishi hamda faoliyat natijalari uchun shaxsan javobgarlikni his etishi, shuningdek, o'z kasbiy mahoratini doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruratini tushunishidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning obyekti sifatida raqamli va innovatsion ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, so'rov, suhbat, usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi uzluksiz va dinamik jarayon bo'lib, u pedagogning bilim darajasini muntazam oshirib borishi, o'z ustida doimiy ishlashi hamda kasbiy va shaxsiy jihatdan takomillashuvini ta'minlaydi. Ushbu jarayon o'qituvchining individual kasbiy sifatlarini shakllantirish, amaliy tajribasini boyitish hamda professional faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligi nafaqat fan sohasidagi chuqur bilimlar bilan, balki raqamli savodxonlik, innovatsion fikrlash, kreativ yondashuv hamda interaktiv metodlardan foydalanish

qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu bilan birga, o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali rejalashtira olishi, pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlashi va qo'llashi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini baholashda quyidagi mezonlar muhim hisoblanadi: mutaxassislik fanlari bo'yicha puxta tayyorgarlikka ega bo'lishi, pedagogik faoliyatga bo'lgan qiziqishi va mas'uliyatli munosabati, kasbiy odobi, o'ziga bo'lgan ishonchi, kommunikativ madaniyati, tashkiliy qobiliyati, ta'lim natijalariga erishishga intilishi, xolisligi hamda o'z faoliyati samaradorligi uchun shaxsiy javobgarlikni his etishi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida pedagogning reflektiv faoliyati, ya'ni o'z ishini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va tajribasini doimiy ravishda takomillashtirib borish qobiliyati ham uning kasbiy yetukligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu sababli kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni uzluksiz ta'lim, raqamli resurslardan foydalanish va innovatsion pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etish orqali ta'minlanadi.

Zamonaviy ta'lim muhitida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligi bir-biri bilan uzviy bog'langan bir qator asosiy kompetensiyalar majmuasi orqali namoyon bo'ladi. Ushbu kompetensiyalar pedagogning professional faoliyatini samarali tashkil etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Avvalo, axborotga oid kompetensiyalar pedagogning kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Mazkur kompetensiyalar o'qituvchining fan sohasi, pedagogika va psixologiya, ilmiy-metodik manbalar, ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari, ularning ota-onalari hamda hamkasblarining tajribasi haqida zarur bilimlarga ega bo'lishini ifodalaydi. Shu bilan birga, raqamli resurslar, elektron platformalar va onlayn ma'lumotlar bazalaridan samarali foydalanish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Kommunikativ kompetensiyalar pedagogning ta'lim jarayonida samarali muloqot o'rnatish, turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutish hamda ta'lim

oluvchilarning emotsional holatini anglay olish malakasi bilan tavsiflanadi. Ushbu kompetensiya o'qituvchining nutq madaniyati, tinglash va tushunish qobiliyati, jamoada ishlash, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish, shuningdek, onlayn va oflayn muloqot vositalaridan unumli foydalanishini o'z ichiga oladi.

Intellectual-pedagogik kompetentlik pedagogning analitik va ijodiy fikrlash qobiliyatini ifodalaydi. U tahlil va sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, muammoli vaziyatlarni hal etish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish hamda tanqidiy va kreativ tafakkurni rivojlantirish bilan bog'liq faoliyatlarni qamrab oladi. Raqamli ta'lim sharoitida mazkur kompetensiya innovatsion pedagogik yechimlarni ishlab chiqish va joriy etishda muhim ahamiyatga ega.

Operatsional kompetentlik pedagogning kasbiy faoliyatni amaliy jihatdan samarali tashkil eta olish qobiliyatini anglatadi. U darslarni rejalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interaktiv metodlardan foydalanish, ta'lim jarayonini monitoring qilish va baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida mashg'ulotlarni tashkil etish ham ushbu kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tartibga soluvchi kompetensiyalar pedagogning o'z faoliyatini boshqarish, maqsad qo'yish, rejalashtirish, vaqtni samarali taqsimlash va belgilangan natijalarga erishishda barqaror faollik ko'rsatish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiyalar o'z faoliyatini tahlil qilish, refleksiya yuritish, xatolar ustida ishlash va professional rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liqdir.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan kompetensiyalar majmuasi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining raqamli ta'lim muhiti sharoitida kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga, innovatsion faoliyatga moslashuvchanligini oshirishga hamda ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri

hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari pedagog kadrlar tayyorgarligiga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Endilikda o'qituvchi nafaqat mutaxassislik fanlarini chuqur bilishi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishi, innovatsion va kreativ yondashuvlarni qo'llashi, reflektiv faoliyat yurita olishi bilan ham ajralib turishi zarur.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligi axborotga oid, kommunikativ, intellektual-pedagogik, operatsional hamda tartibga soluvchi kompetensiyalar majmuasi orqali shakllanadi. Ushbu kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, pedagogning professional faoliyatini samarali tashkil etish, ta'lim jarayonini rejalashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda yuqori natijalarga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli ta'lim platformalari, virtual vositalar, multimedia texnologiyalari va sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini oshirishini ko'rsatdi. Kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini kuchaytirish hamda davlat ta'lim siyosatida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga muhim hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство: Учеб. пособ. для магистратуры всех специальностей / Под общ. ред. Б.Г. Кадырова; М-во высш. и сред. спец. Обр. РУз. — Т.: Издательско-полиграфический творческий дом имени Чулпана, 2005. – 200 с.

2. Rakhimov, B. K., Jabborova, D. D., Khudayberdieva, D. B., Omonboev, B. I., Kurbanov, E. E., & Khayitov, S. T. (2023). Psychological fundamentals of

formation of creative thinking of future teachers. Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), e2704-e2704.

3. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. Confrencea, 11(1), 149-153.

4. Taymuratov A.R., Atajanov S.F. Sport pedagogik mahoratini oshirish (kurash): o'quv qo'llanma. — Toshkent: «Fan va texnologiya», 2017. — 272 b.

5. Татур Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста // Высшее образование сегодня. — 2004. — № 3. — С. 20-23.